

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ASSOSIATIV QARASHLAR VA ASSOSIATIV MUNOSABAT TALQINI

Karimova Feruzaxon Sayfuddinovna

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi

***Annotatsiya:** Maqolada assotsiativ tilshunoslikning o‘zbek tilshunosligida shakllanishi va rivojlanishi haqida so‘z boradi. Shuningdek, assotsiativ munosabat va badiiy assotsiatsiyalar haqidagi qarashlar talqini ham tahlilga tortilgan.*

***Kalit so‘zlar:** tilshunoslik, psixolingvistika, assotsiatsiya, assotsiativ munosabat, verbal assotsiatsiya.*

Tilshunoslik rivojida psixolingvistik tadqiqotlar salmog‘i ortib borayotgani bejizga emas. Inson nutqining uni qurshab turgan olam, jamiyat va o‘z ichki dunyosi, ruhiyati bilan hamohanglik qilishi haqidagi fikrlar bugungi tilshunoslar uchun yangilik emas. Markazida inson turuvchi antroposentrik tilshunoslik yo‘nalishlariga nazar tashlar ekanmiz, unda til va tafakkur masalalari hanuzgacha o‘z qimmatini va dolzarbligi bilan asosiy masalalardan biri sifatida qolayotganini kuzatishimiz mumkin. Inson rivojlanishda, tafakkur tadrijida ekan, ushbu qiziqarli masala atrofidagi fikrlar va g‘oyalar kurashi bir-birini to‘ldirib, mohiyatni oydinlashtir tomon olg‘a qadam tashlayveradi. Taniqli tilshunos olim Sh. Safarov til va tafakkurni “ikki buyuk nahang” deya e‘tirof etgan edi. [9:29]. Mazkur juftlikni tadqiq etish ilm-fan shakllangan davridayoq paydo bo‘lgan bo‘lsa, hanuzgacha ular o‘rtasidagi munosabat haqida tadqiqotlar yaratilmoqda va yana yangi tadqiqotlar yuzaga kelishi tabiiydir.

Tilshunoslik tarixida narsa va uning nomi o‘rtasidagi bog‘liqlik xususida bahslashib, “anologistlar” va “anomalistlar” nomi bilan iz qoldirgan yunon faylasuflari fikrlari muammoning paydo bo‘lishi haqidagi ilk ma'lumotlarni bergan bo‘lsa, [3:7-8] keyinchalik bir qancha faylasuf-tilshunoslar: V. fon Gumboldt, A. Potebnya, Boduen de Kurtene F. de Sossyur, E. Sepir, Y. Vaysgerber va boshqa ko‘plab tilshunoslarning ta'limotlarida til va tafakkur masalasi keng tadqiq etildi.

Til va tafakkur munosabatini yorituvchi kognitiv tilshunoslikning yuzaga kelishi natijasida “kognitiv tahlilda olamni bilish jarayonida yuzaga keladigan mantiqiy (mental) strukturalarning lisoniy ifoda topishini ta'minlovchi mexanizmlar qamrovidagi uslub va vositalar tadqiqi asosiy o‘ringa ko‘chdi”. [9:15]. Ana shunday tafakkur mexanizmlaridan biri bo‘lgan assosiasiyalar (J. Lokk), assosiativ munosabat (F. de Sossyur) va assosiativ maydon (Sh. Balli) haqidagi tadqiqotlar

o‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning so‘nggi choragidan boshlab tadqiq etila boshladi.

Tildagi assosiasiyalar haqida ilk bor V. fon Gumboldt fikr bildirib, quyidagilarni yozgandi: “Har qimning ongida mos keladigan, ammo bir xil bo‘lmagan belgilar yonib turadi”. [13]. Gumboldt izidan borib, tildagi assosiativ munosabat haqidagi dastlabki ilmiy nazariyalarni tadqiq etgan F. de Sosyur va A.Potebnyalar ta’limoti bevosita mazkur sohaning o‘rganilishiga zamin yaratdi.

O‘zbek tilshunosligida assosiasiya va assosiativ munosabat haqidagi ilk fikrlarni zabardast tilshunos olim A. Nurmonovning tadqiqotlarida uchratamiz. Olimning “... lisoniy birliklar nutq jarayonidan tashqari o‘zaro qandaydir umumiy belgi asosida xotirada muayyan guruhlarga birlashib turadi. Masalan, ta’lim so‘zi ongda maktab, kitob, muallim singari bir qancha boshqa so‘zlar bilan bog‘lanib turadi. Bunday munosabatni sintagmatik munosabatlardan tamomila boshqacha xususiyatga egaligini ko‘rish qiyin emas. Keyingi munosabat cho‘ziqlikka ega emas, u miyada lokallashadi va har bir shaxsning xotirasida saqlanuvchi hazinaga mansub bo‘ladi” [4:79], tarzidagi jummalari fikrimizni dalillaydi.

O‘zbek tilshunosligining keyingi tadqiqotlarida assosiasiya va assosiativ munosabatlarga fikr bildirgan olimlar sanoqli. Ulardan D. Xudayberganovning “Matnning antroposentrik tadqiqi” monografiyasi mazkur muammoga birinchilardan bo‘lib e’tibor qaratilganligi bilan diqqatga sazovordir. Olima mazkur ishida bu haqida fikr yuritar ekan, “Assosiativ tafakkur haqidagi falsafa va kognitiv psixologiyada mavjud bo‘lgan nazariy qarashlar tilshunoslikka ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi” [6:30], deya ularning 3 turi haqida ma’lumotlar keltiradi. Olimaning keyingi tadqiqotlarida assosiasiya terminiga quyidagicha ta’rif beriladi: “Assosiasiya – (lot. associato – birlashtirish; qo‘shish; J. Lokk termini). Alohida olingan predmet, voqea-hodisa, faktlar aloqasining inson xotirasida aks etishi va saqlanishi; bir psixik element yuzaga kelishining inson xotirasida u bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa bir psixik element obrazining paydo bo‘lishiga olib kelishi”. [7:14].

Tildagi assosiasiya va assosiativ munosabatlarni monografik planda keng tadqiq etgan olim D. Lutfullaeva mazkur masalaga o‘z qarashini quyidagicha bildiradi. “Assosiativ tilshunoslikning markaziy tushunchalaridan biri assosiativ munosabat masalasidir. Assosiativ munosabat til birliklarining inson psixologik tasavvuriga asoslangan munosabati bulib, “bir-birini yodga solish” mexanizmini aks ettiradi. Bu munosabat asosida assosiasiya tushunchasi yotadi. Til birliklarining assosiativ munosabati, verbal assosiasiyalarning hosil bulishi masalasini yoritishdan avval assosiasiya terminining ma’no-mohiyati, fanda ilmiy muomalaga kiritilishi, tilga assosiativ yondashuvning shakllanishi, verbal assosiasiyalar tushunchasi, o‘rganilishi kabi masalalar” muhim hisoblanadi. [2:8].

Badiiy matnni assosiativ tadqiq etgan H. Ortiqova to'g'ri ta'kidlaganidek, "Psixolingvistik aspektidagi qator tadqiqotlarda matn assosiativ tajriba metodi asosida o'rganilganda asosiy e'tibor til egalarining bu matnni idrok etishi va eslab qolishi darajasini aniqlashga qaratilgan" bo'ladi. [8:32]. Darhaqiqat, psixolingvistik tadqiqotlarning haqqoniy chiqishida tajriba metodlari doimo samarali hisoblangan. Nutq tuzuvchining milliy va individual assosiasiyalari nafaqat badiiy nutqning tarkib topishida, balki rasmiy shaklga bo'ysundirilmaydigan og'zaki va ommabop uslubga xos matnlarni tadqiq etishda ham qo'l keladi. Tildagi yozilmagan, lekin qonun-qoidaga o'xshab qat'iylashgan, muntazamlilik kasb etgan, tayyor qolipdagi fikrlash an'anasini beruvchi stereotiplar, xalq iboralari kabi milliy va etnik birliklarning tildagi turg'un birikmalari ifodasini yoritishda assosiasiyalarning o'rni beqiyosdir. Muloqot ishtirokchilari bo'lgan nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi shaxslar orasidagi bir-birini anglashlarida o'zaro zarur bo'lgan bu tafakkur "iplari"ning qaysi qonuniyatga ko'ra paydo bo'lishini yoritish g'oyatda maroqli va inson tadrijiy tadqiqi uchun dolzarb hisoblanadi. Bunda tildagi ishora birliklari bo'lgan barcha unsurlar – pressupozisiya, tagma'no, deyksis, intertekstuallik, presedent nomlar, allyuziyalar, metaforik birliklarning hissasi tadqiqot ishi uchun qurol vazifazini o'tashi shubhasizdir. Badiiy asarga qo'yilgan birgina nom ostida butun matnga teng mazmuni qiyoslanishini oladigan bo'lsak, kitobxonlar tasavvurida paydo bo'ladigan individual assosiasiyalarning xilma-xilligi va o'xshash tomonlarini taqqoslash orqali boshlang'ich natijalarni qo'lga kiritish mumkin. Badiiy asar yoki u boshqa san'at asari bo'lsin unga qo'yilgan nom va uning interpretatori ongida hosil bo'lgan assosiasiya va ijodkor maqsadi o'rtasidagi bog'liqlik yoki noo'xshashlikni tadqiq qilish mazkur muammoning boshlang'ich nuqtalaridan biri bo'ladi desak, adashmagan bo'lamiz. Shunga ko'ra biz muammoni tadqiq etishda, assosiativ munosabatning 2 turi: 1) matn muallifi va kitobxon o'rtasidagi assosiativ munosabat; 2) muloqot ishtirokchilari-adresant va adresat orasidagi assosiativ munosabatlardan kelib chiqqan holda yondashishni maqsad qilib oldik.

Matn tadqiqiga bag'ishlangan ishlarni ko'zdan kechirar ekanmiz, matn muallifi dunyosi va kitobxon dunyosini o'rtasidagi tafakkur iplarini yoritish ne qadar murakkablik kasb etishini quyidagi zanjir misolida anglashimiz mumkin. "Matn voqelik – ong – olam manzarasi – til – matn tuzuvchi – o'quvchi – matn proeksiyasidan iborat tizim unsuri hisoblanadi". [6:99]. Shu bilan birga "psixolingvistik tahlilda muallif-resipient munosabatlarida amal qiluvchi lisoniy va nolisoniy omillar borki, ularni o'zaro uyg'unlikda tadqiq etish kutilgan natijalarni olishga imkon yaratadi". [6:100].

Fikrlarimizni dalillash maqsadida quyidagi matn parchasida e'tibor qaratsak. Unda muloqot matni ishtirokchilarining assosiativ tafakkuriga oid o'xshashlik va uning omillari haqida hulosa qilishimizga imkon beruvchi holatlar mavjud.

“Otamiz kitob yuzini tomosha qildi. Kitob yuzida ulkan mushuk cho‘nqayib o‘tirdi. “Kitob ana shu mushuk haqidadir-ov...” – deya o‘yladi.

Kitobni qaytib berdi.

Turdi-turdi, o‘ylanib qoldi. Chindan-da kitob olib borsa bo‘lmaydimi? Xushvaqt katta bo‘lsa o‘qiydi-da...

Otamiz eshitgan-bilgan kitoblarini bir-bir yodga oldi.

- Shu Kumushbibidan bormi? – dedi.

- Qanaqa Kumush?

- Haligi marg‘ilonlik Kumushbibi.

- Yozuvchimi?

- E, yo‘g‘-e, haligi... Otabekning qaylig‘i-chi,

- Ha-a, “O‘tgan kunlar” deng. Bor, bor.

- Shundan ber, Kumushbibidan ber.

- Qiz kitobni topib keldi”. (T. Murod. Oydinda yurgan odamlar, 325-b).

Mazkur parchada so‘z borayotgan kitob, A. Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asari o‘zbek kitobxonlari uchun mashhur va taniqli asar hisoblanadi. Asar o‘zbek kitobxonlari xotirasida “milliylik” tushunchasi bilan muhrlangan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Undagi qahramonlar nomi o‘zbek millatiga xos bo‘lgan barcha uchun birdek tanish. Kitob sotib oluvchining kitob nomini uning qahramonlari nomi bilan atashi sotuvchi xotirasida Kumush semantik maydoni assosiasiyasi bilan bog‘liq tushunchalarni yodga soldi. Natijada sotuvchi ongida ulangan tushunchalar ichidan “O‘tgan kunlar”ning yodga olinishi, tanlanishi ikkala suhbatdosh – nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi orasidagi axborotning davomiyligini ta‘minladi. Mazkur muloqot ishtirokchilari o‘rtasidagi axborotning anglanishida asosiy bog‘lovchi iplar “milliylik” va “mashhurlik” tushunchalari hisoblanadi. Ushbu tushunchalarning har ikki suhbatdosh xotirasida mavjudligi va uyg‘unlashuvi matnning kommunikativligini ta‘minlab kelgan. Agar sotuvchi Kumush haqidagi asarni bilmaganida yoki boshqa millatga mansub bo‘lganida, muloqot davomiyligi uzoqroq cho‘zilgan bo‘lar edi, deya xulosa qilishga asos bor.

D. Xudayberganovanning matnning psixolingvistik tahliliga bag‘ishlangan monografiyasida psixolingvist olim V. Belyaninning ilmiy qarashlariga munosabat bildirilib, quyidagi fikrlar alohida keltiriladi: “Psixolingvistikada o‘ziga xos yo‘nalish yaratgan V. P. Belyanin o‘zining “Osnovi psixolingvisticheskoy diagnostiki (modeli mira v literature)” nomli kitobida matnni psixolingvistik tahlil qilib, matnda ifodalangan emosiya turlariga ko‘ra ularni 6 turga ajratadi: 1) yorug‘ matnlar; 2) qorong‘i matnlar; 3) qayg‘uli matnlar; 4) quvnoq matnlar; 5) chiroyli matnlar; 6) murakkab matnlar. Uning “Psixologicheskoe literaturovedenie” (Moskva, 2006) nomli kitobida bu fikrlar yanada chuqurlashtirilib, badiiy matnlar psixiatrik adabiyotshunoslik nomli yangi yo‘nalish nuqtai nazaridan tahlil qilingan”.

[6:105]. Ko‘rinadiki, “psixatrik adabiyotshunoslik” nomli yangi yo‘nalish tarafdori bo‘lgan olim psixolingvistik tadqiqotlar tilshunoslikda qay darajada muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlagan. Darhaqiqat, har qanday matn, u xoh yozma yo og‘zaki bo‘lsin hissiy munosabatdan holi emas. Har qanday matnda matn tuzuvchining hissiy olami aks etishi va u resipient interpretasiyasiga qay darajada ta’sir etishini tadqiq etish tildagi bir qancha hodisalarni yoritishda muhim hisoblanadi. Xususan, assosiyalarning turlari va ularning paydo bo‘lish mexanizmlarini yoritishda individual uslub va individual tafakkur qoliplari haqidagi yangi tasavvurlarning vujudga kelishini ta’minlaydi. Navbatdagi matn parchasidan esa matn muallifi va uni idrok etuvchi tomonidan matn qanday idrok etilayotgani va unda qaysi omillar ustivor ekanligini yoritish asosiy maqsad hisoblanadi.

Erta bahor edi.

Ko‘ngil bog‘imdan bir nihol unib chiqdi.

Namxush, qoramtir tuprog‘dan ipdaygina bo‘lib osmonga-bulutlar diyoriga bo‘y cho‘zmoqqa chog‘langan bu jajji jonga avval-boshda ko‘p e’tibor qilganim yo‘q. Bog‘ katta, gullar ko‘p, shu ojiz vujudning yonginasida karnaygul tarvaqaylagan, uning naryog‘ida yoshli ko‘zchalarini gulbarglari ila pana qilgancha namozshomgullar yastanishgan, so‘ngroqda esa qizil, sariq, ko‘k, pushti ranglarning to‘fonini hosil qilib beorgullar barq urgan edi, u yog‘ida esa pechakgullaru atirgullar bor tarovatini ko‘z-ko‘z qilib bezangan, yastangan, o‘ralgan, chirmashgan, xullas-yashar edilar. (I. Sulton. Mening gulim. Asarlar. Hikoyalar. I jild, 34-b).

Matndagi ko‘ngil bog‘i – inson ko‘ngli; nihol, gul – qiz; bog‘ – hayot; karnaygul – maqtanchoq qiz; namozshomgul – yig‘loqi qiz; beorgul – orsiz qiz; pechakgul – yigitlar oldidan nari ketmaydigan qiz; atirgul – yasanchoq qiz tushunchalari badiiy assosiasiya orqali ifodalanmoqda. Yozuvchining badiiy assosiasiyasi umumiy va individuallik kasb etgan. Atirgul – yasanchoq qiz. Ta’kidlash lozimki, atirgul – yasanchoq qiz badiiy assosiasiyasi individual uslub hosilasi hisoblanib, umumiy assosiasiyada u go‘zal qiz tushunchasi bilan bog‘lanadi. Muallif talqinida esa, umumiy assosiasiyadan farqli ravishda individual assosiasiyani hosil qilinishida foydalanilgan. Atirgul leksemasi umumiy holda – o‘zbek xalqi badiiy tafakkurida xalq qo‘shiq va ashulalarida go‘zal qizga o‘xshatiladi. Masalan: “Atirgulim, atringni soch, mayli, tikon, xoring bo‘lay, Ko‘z tegmasin bo‘yingga deb, tilovchi zor-zoring bo‘lay”. Qolgan badiiy tushunchalar bilan bog‘lanadigan assosiasiyalar barcha kitobxonlar uchun bir xil mazmun kasb etgani uchun umumiy assosiasiyalar hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, matn mazmunini anglashda assosiativ tafakkur va assosiasiyalarning rolini tadqiq qilish matnning yaratilishi haqidagi nazariyalarni rivojida katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Бушуй Т, Сафаров Ш. Тил қурилиши: таҳлил методлари ва методологияси. – Тошкент: Фан, 2007. – 191 б.
2. Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. – Тошкент. 2017. – В. 8.
3. Нурмонов А. Қадимги Юнон ва Рим тилшунослиги. Танланган асарлар. II жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2012. – В. 7-8.
4. Нурмонов А. Парадигма ва унинг оламнинг лисоний манзараси (ОЛМ) га муносабати. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: Akademhashr, 2012. – В. 79.
5. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йуналишлари («Лингвистика» йуналишидаги магистрлар учун ўқув кўлланма). – Андижон. 2006. – В. 29.
6. Худайберганава Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013. – В. 127.
7. Худайберганава Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик таққини: Филол. фан. д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент, 2015. – В. 30.
8. Ортиқова Ҳ. Бадий матнинг ассоциатив тадқиқи. Фил. фан. б-ча ф. док. (PhD) дисс. . – В. 32.
9. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – В. 29.
10. Мурод Т. От кишнаган оқшом. Қиссалар. – Тошкент: Шарқ, 1994. – В. 325.
11. Султон И. Менинг гулим. Асарлар. Ҳикоялар. I жилд. – Тошкент, 2017. – В. 34.
12. [ru.wikipedia.org/wiki/Ассоциация_\(психология\)](http://ru.wikipedia.org/wiki/Ассоциация_(психология)).
13. https://studbooks.net/1703067/psihologiya/ponyatie_assotsiatsiya_psihologii_verbalnye_assotsiatsii_assotsiativnyu_eksperiment